
Bolalarning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlarga ota-onaning ma'sulligi

Oilada bolalarni tarbiyalash, sog'lom va barkamol avlodni shakllantirishda ota-onaning ma'suliyati judda katta xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga ko'ra, farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi deb belgilab qo'yilgan. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga ega. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi. Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota va onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi. Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqqa ega. Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga muvofiq bolaning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun zarur turmush sharoiti bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 2-moddasiga ko'ra, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Ushbu Kodeksning 103-moddasiga asosan, ota-ona favqulodda holatlar (bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishi shart. Qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota (ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki yuqoridagilarga asosan, ota-ona farzand oldida bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishda teng huquq va majburiyatlarga ega. Bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqa sabablarga ko'ra bolaga qilingan sarf xarajat er-xotin o'rtasida ularning birga yoki alohida yashashi hamda nikohdan ajrashganligi yoki ajrashmaganligidan qat'iy nazar teng taqsimlanishi lozim.

Yo. To'ychiev,
Fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudi sudyasi.

2025-01-31 11:54:51